



THE FORMATION AND PHILOSOPHICAL ESSENCE OF LEGAL RELATIONS IN THE CONTEXT OF DIGITAL SOCIETY

Abdullo Soliev

Independent researcher of Andijan State

Pedagogical Institute

azizbek.umarov.80@list.ru

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: digital society, legal relations, socio-philosophical analysis, digital technologies, legal consciousness, artificial intelligence, information security, legal culture.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: In this article, in the process of formation of a digital society, a new content of legal relations is analyzed, their philosophical and social essence. Today, when digital technologies are deepening into all spheres of human activity, the legal system is also developing on the basis of new forms and principles. The study covered the reinterpretation of the concepts of law, freedom, responsibility and justice in the context of the digital world, and the transformation of legal consciousness from a socio-philosophical point of view.

RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA HUQUQIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY MOHIYATI

Abdullo Soliev

Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

azizbek.umarov.80@list.ru

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: raqamli jamiyat, huquqiy munosabatlar, ijtimoiy-falsafiy tahlil, raqamli texnologiyalar, huquqiy ong, sun'iy intellekt, axborot xavfsizligi, huquqiy madaniyat.

Annatatsiya: Mazkur maqolada raqamli jamiyatning shakllanishi jarayonida huquqiy munosabatlarning yangicha mazmun kasb etishi, ularning falsafiy va ijtimoiy mohiyati tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar inson faoliyatining barcha sohalariga chuqur kirib borayotgan bugungi kunda, huquqiy tizim ham yangi shakl va tamoyillar asosida rivojlanib bormoqda. Tadqiqotda raqamli dunyo

sharoitida huquq, erkinlik, mas'uliyat va adolat tushunchalarining qayta talqin qilinishi hamda huquqiy ongning transformatsiyasi ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan yoritilgan.

ФОРМИРОВАНИЕ И ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ ПРАВООТНОШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОГО ОБЩЕСТВА

Абдулло Солиев

Независимый исследователь

Андижанского государственного педагогического института

azizbek.umarov.80@list.ru

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	цифровое общество, правоотношения, философский анализ, технологии, искусственный интеллект, информационная безопасность, правовая культура.	Аннотация:	В данной статье
		анализируется правоотношений, социальная сущность в процессе формирования цифрового общества. Сегодня, когда цифровые технологии глубоко проникают во все сферы человеческой деятельности, правовая система также развивается на основе новых форм и принципов. В исследовании рассматривается переосмысление концепций права, свободы, ответственности и справедливости в контексте цифрового мира, а также трансформация правосознания с социально-философской точки зрения.	новое содержание их философская и процессуальная сущность в процессе формирования цифрового общества. Сегодня, когда цифровые технологии глубоко проникают во все сферы человеческой деятельности, правовая система также развивается на основе новых форм и принципов. В исследовании рассматривается переосмысление концепций права, свободы, ответственности и справедливости в контексте цифрового мира, а также трансформация правосознания с социально-философской точки зрения.

Kirish. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borishi bilan insoniyat hayotida sifat jihatdan yangi makon – raqamli dunyo shakllanmoqda. Bu dunyo an'anaviy ijtimoiy munosabatlar qatorida yangicha huquqiy munosabatlarni ham yuzaga keltirmoqda. Inson faoliyatining ko'plab sohalari internet va axborot-kommunikatsiya tarmoqlariga ko'chib, virtual muhitda kechadigan bo'ldi. Mazkur jarayonni chuqur ijtimoiy-falsafiy tahlil etish dolzarbdir. Raqamli dunyoning falsafiy ontologiyasini, tarmoq jamiyatida shaxsning huquqiy mavqeini, platformalar qudrati va algoritmlarning boshqaruvchilik ta'sirini, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi, raqamli erkinlik va axborot suvereniteti masalalarini o'rganish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov mustaqillik davrida globalashuv sharoitida milliy ong va mafkurani himoya qilish zarurligini ta'kidlab, zamonaviy axborot oqimlarining xavf-xatariga e'tibor qaratgan edi. Uning so'zlariga ko'ra, "bugungi kunda

inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham, axborot olamidagi globalashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan ziyon yetkazishi mumkin" [1]. Darhaqiqat, raqamli davrda axborotning ijtimoiy hayotga ta'siri beqiyos kuchaygan. Shunday ekan, mazkur tadqiqotda raqamli dunyo fenomeni va uning huquqiy oqibatlari mahalliy va xorijiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili: Raqamli dunyo falsafiy jihatdan qaralganda, u yangi ontologik makon – axborot muhiti (infosfera) sifatida namoyon bo'ladi. Italiyalik faylasuf L. Floridi "infosfera" atamasini joriy etib, uni "axborot jarayonlari, obyektlari va agentlari (informatsion tizimlar)dan tashkil topgan yagona axborot muhit" deb ta'riflagan [2]. Boshqacha aytganda, raqamli dunyo – bu real voqelikning axborot shaklidagi ko'zgusidir. Floridining ta'kidlashicha, zamonaviy texnologiyalar oqibatida insoniyat "to'rtinchi inqilob" bosqichiga – raqamli ontologiya davriga qadam qo'ydi. Endilikda inson o'zini nafaqat biologik va ijtimoiy mavjudot, balki raqamli muhitning ajralmas qismi sifatida anglay boshladi. Virtual haqiqat va real haqiqat chegaralari tobora yo'qolib bormoqda. Masalan, onlayn kommunikatsiyalar natijasida makon va zamon tushunchalari yangi mazmun kasb etmoqda – inson bir vaqtning o'zida bir necha joyda "mavjud" bo'lib, dunyoning turli nuqtalaridagi jarayonlarda ishtirok etishi yoki xabardor bo'lishi mumkin. Natijada an'anaviy falsafadagi mavjudlik (borliq) kategoriyalariga raqamli kontekst qo'shildi. Raqamli borliq o'ziga xos xususiyatlarga ega: unda axborot abadiyligi (Internetdan o'chirilmagan ma'lumotlar deyarli cheksiz muddat saqlanadi), ko'payuvchanligi (raqamli nusxalar cheksiz yaratilishi), interaktivligi (foydalanuvchilar doimiy o'zaro aloqada) kabi ontologik jihatlar kuzatiladi. Bu yangi borliq falsafiy muammo va savollarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, raqamli shaxs tushunchasi shakllanmoqda: insonning raqamli olamdagi mavjudligi (masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi profili) uning "virtual men"ini yaratadi va bu "men" real hayotdagi huquq va burchlarga ta'sir o'tkazadi. Inson ongining va ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning raqamli inkikoslari (avatarlar, raqamli identifikatorlar) paydo bo'ldi. Shu sabab falsafa sohasida "onlayn hayot" fenomeni alohida tadqiq qilinmoqda.

Mahalliy tadqiqotlarda ham raqamli dunyo mohiyati e'tibordan chetda qolmagan. Tadqiqotlar raqamli inqilob zamonaviy ijtimoiy dinamikaga qanday ta'sir ko'rsatishini va yangi falsafiy tushunchalar zarurligini ko'rsatadi. Xulosa qilish mumkinki, raqamli dunyo tushunchasi klassik borliq tushunchasini qayta ko'rib chiqishga undaydi – endilikda borliq faqat moddiy va ma'naviy emas, balki axborot ko'rinishida ham namoyon bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalar jamiyat tuzilmasini ham o'zgartirmoqda. Ispaniyalik sotsiolog M. Kastels ta'rifiga ko'ra, "tarmoq jamiyati – bu ijtimoiy tuzilmasi mikroelektronika asosidagi axborot-kommunikatsiya

texnologiyalarida ishlovchi tarmoqlardan iborat jamiyatdir” [3]. Bu nazariy kontseptsiyada jamiyatning asosiy aloqalari va institutsiyalari tarmoqlar shaklini oladi: iqtisodiy, siyosiy, madaniy jarayonlar global kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshadi.

Tadqiqot va natijalar. Tarmoq jamiyatida insonning huquqiy mavqei ham yangicha talqin qilinmoqda. An’anaviy jamiyatda shaxsning huquq va erkinliklari asosan davlat chegaralari bilan cheklangan bo’lsa, endi global tarmoqlar makonida shaxs bir paytning o’zida bir nechta yurisdiksiyalarda ishtirok etishi mumkin. Masalan, internet foydalanuvchisi bir davlat fuqarosi bo’lsa-da, turli platformalar qoidalariga bo’ysunadi, xalqaro maydonda so’z erkinligidan foydalanadi yoki transmilliy xizmatlardan foydalanish orqali turli mamlakatlarning qonuniy talablariga duch keladi. Demak, shaxsning huquqiy maqomi endi faqat milliy huquq bilan emas, balki transmilliy raqamli normalar bilan ham belgilanmoqda. Bunday vaziyatda “raqamli fuqarolik” tushunchasi dolzarb bo’lib, fuqarolar nafaqat real davlat, balki virtual hamjamiyatlar a’zosi sifatida ham qaralmoqda. Misol uchun, Yevropa Ittifoqida elektron rezidentlik (e-residency) yoki raqamli fuqarolik tashabbuslari paydo bo’lgan – bu raqamli makondagi huquq va majburiyatlarni huquqiy tan olish harakatidir.

O’zbekiston konstitutsiyasi ham axborot asrining talablarini inobatga olib, fuqarolarning internetdan foydalanish huquqini kafolatladi. Konstitutsiyamizning 29-moddasiga kiritilgan o’zgartirishga binoan, “har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega davlat Internet jahon axborot tarmog’idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi” [4]. Bu norma tarmoq jamiyatida shaxsning axborot olish erkinligini konstitutsiyaviy darajada e’tirof etadi. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to’g’risida”gi Qonuni hamda boshqa me’yoriy hujjatlar tarmoq muhitida fuqarolarning axborot sohasidagi huquqlarini mustahkamlamoqda [5]. Tarmoq jamiyatida shaxsning huquqiy holati ko’p qirrali. Bir tomondan, Internet tufayli shaxsning so’z va fikr bildirish erkinligi kengaymoqda – ijtimoiy tarmoqlar va bloglar orqali fuqarolar o’z fikrlarini jahon miqyosida ommaga yetkazish imkoniga ega bo’ldi. Bu esa klassik huquqiy tushunchalarga yangi savollar tug’dirmoqda: masalan, onlayn so’z erkinligini cheklash mumkinmi, agar bu boshqa shaxslarning huquqlariga tajovuz qilsa? Yoki transchegaraviy kibermakonda tuhmat va haqorat uchun kim javobgar? Bunday savollar huquqni yangi sharoitga moslashtirish zarurligini ko’rsatadi. Ikkinchi tomondan, tarmoq jamiyati shaxs uchun yangi xavflarni ham tug’dirdi – kiberjinoyatchilik, shaxsiy ma’lumotlarning o’g’irlanishi, onlayn firibgarlik va h.k. natijasida fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilishi mumkin. Shu bois raqamli muhitda shaxsni himoya qilish huquqiy mexanizmlari rivojlantirilmoqda. O’zbekistonda “Kiberxavfsizlik to’g’risida”gi qonun (2022) qabul qilinib, fuqarolarni kiberxurujlardan himoyalash choralari belgilandi [6].

Tarmoq jamiyatida shaxs endilikda faqat milliy huquq subyekti emas, balki global raqamli makonning ham subyektidir. Bu esa huquqshunoslik oldiga yangi vazifalarni qo'yadi – shaxsning onlayn huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularni suiiste'mollardan muhofaza qilish va turli yurisdiksiyalar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish muhimdir.

Raqamli dunyoning o'ziga xos jihatlaridan biri – platformalar hokimiyatining vujudga kelishidir. Bugungi kunda Facebook, Google, YouTube, Twitter kabi yirik onlayn platformalar milliardlab foydalanuvchilarni birlashtirgan holda ulkan ijtimoiy maydonlarga aylangan. Ushbu xususiy kompaniyalar amalda kommunikatsiya infratuzilmasini nazorat qiladi, axborotni tarqatish qoidalarini belgilaydi va foydalanuvchi xatti-harakatlariga ta'sir o'tkazadi. Bu holat ba'zan "platformalar suvereniteti" deb ham atalmoqda – ya'ni platformalar davlatga xos ba'zi vakolatlarini (masalan, tartibni saqlash, senzura yoki ruxsat berish) bajarib kelmoqda. Platformalarning bunday hokimiyati huquqiy jihatdan qator savollarni tug'diradi. Avvalo, platformalar foydalanuvchi kontentini moderatsiya qilish orqali so'z erkinligi chegaralarini belgilamoqda. Masalan, ayrim foydalanuvchilarning akkauntlari turli sabablarga ko'ra bloklanishi yoki postlari o'chirilishi odatiy holga aylangan. Bu jarayonda shaffoflik va adolat tamoyillariga rioya etilishi masalasi kun tartibida turibdi. Chunki platformalar qoidalari ko'pincha umumiy va biryoqlama bo'lib, foydalanuvchiga shikoyat qilish yoki huquqini himoya qilish mexanizmlari zaif. Yirik IT-korporatsiyalar "siyosati" ba'zan milliy qonunchilikdan ustunroq amal qilayotgandek taassurot uyg'otadi. Shu bois Yevropa Ittifoqi so'nggi yillarda Digital Services Act (DSA) kabi hujjatlarni qabul qilib, platformalarning ijtimoiy tarmoqlarda qonunbuzarliklarga qarshi choralarini huquqiy tartibga solishga harakat qilmoqda. Bundan tashqari, algoritmik boshqaruv muammosi ham dolzarbdir. Platformalar va raqamli xizmatlar murakkab algoritmlar yordamida foydalanuvchilarga axborot yetkazadi yoki qarorlar qabul qiladi. Misol uchun, Facebook lentasida qaysi yangiliklar ko'rinishini yoki YouTube'da qaysi videolar tavsiya etilishini maxsus algoritmlar hal qiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt tizimlari kredit skoringi, kadrlar tanlovi, hatto sud jarayonlari kabi sohalarida qaror qabul qilishda qo'llanilmoqda. Bu algoritmlarning shaffofligi va xolisligi masalasi huquq nuqtai nazaridan juda muhim. Agar algoritm noto'g'ri yoki noxolis qaror chiqarsa, mas'ul kim? Foydalanuvchi algoritmik qarorga shikoyat qilish huquqiga ega bo'lishi kerakmi? Dunyo tajribasida bu savollarga javoban "algoritmik adolat" konsepsiyasi shakllanyapti. Masalan, Yevropa Ittifoqining GDPR reglamenti ayrim hollarda avtomatlashtirilgan qarorlarga nisbatan inson aralashuvi huquqini belgilab bergan.

Platformalar hokimiyati bilan bog'liq muammolarni Evgeniy Morozov kabi tahlilchilar keskin tanqid qilishadi. E.Morozov raqamli utopizmni rad etib, Internet o'z-o'zidan erkinlik va demokratiya kafolati emasligini ko'rsatadi. Aksincha, u "Internet zolimni emas, mazlumni qo'llab-quvvatlaydi degan fikr xomxayoldir" deya ogohlantiradi – chunki raqamli vositalardan antidemokratik kuchlar ham foydalana oladi [7]. Darhaqiqat, platformalar algoritmlari ayrim hollarda foydalanuvchilarni radical qarashlar tomon yetaklab, ijtimoiy bo'linishlarni kuchaytirishi mumkin. Masalan, YouTube ning tavsiya algoritmi foydalanuvchini qiziqtirgan mavzuda tobora keskinroq videolar tomon yo'naltirib, "aks-sadolar xonasi" (echo chamber) effektini yuzaga keltirishi ilmiy tadqiqotlarda ko'rsatilgan. Bu esa jamiyatdagi qutblashuv va adovatga zamin yaratib, huquqiy barqarorlikka tahdid solishi mumkin. Platformalar ustidan demokratik nazorat o'rnatish zarurati ortib bormoqda. Jahonda antimonopoliya choralari ko'rilmoqda – masalan, AQSh va Yevropada Google, Amazon, Meta kabi kompaniyalarni bo'lish yoki ularni qat'iy tartibga solish takliflari muhokamada. Shuningdek, platformalarning foydalanuvchi ma'lumotlarini suiiste'mol qilishiga qarshi yirik jarimalar qo'llanilmoqda (2018 yilda Facebook kompaniyasi Cambridge Analytica mojarosi uchun rekord miqdorda jarimaga tortilgani ma'lum). Bu harakatlar platforma hokimiyatini huquqiy davlat tamoyillariga bo'ysundirishga qaratilgan.

O'zbekiston sharoitida ham platformalar faoliyatini tartibga solish masalalari paydo bo'lmoqda. 2021 yilda O'zbekiston hukumati shaxsiy ma'lumotlarni mahalliy serverlarda saqlash talabini bajarmagan ijtimoiy tarmoqlarga nisbatan chora ko'rdi – Twitter, TikTok, VKontakte, Skype kabi xizmatlar bir muddat bloklandi. Ushbu qat'iy choralar "raqamli suverenitet"ni ta'minlash deya izohlandi, ya'ni chet el platformalari milliy qonunchilikka bo'ysunishini talab qilish holati kuzatildi. Keyinchalik, Prezident Shavkat Mirziyoyev bu blokirovkalarni keskin tanqid qilib, soha mutasaddilarini lavozimidan ozod etdi [8]. Bu hodisa platformalar ustidan nazorat o'rnatishda muvozanatni topish oson emasligini ko'rsatdi – bir tomondan, milliy manfaatlarni himoya qilish zarur; ikkinchi tomondan, Internet erkinligini haddan ziyod cheklash oqibatlari salbiy bo'lishi mumkin. Algoritmik boshqaruv masalasida esa O'zbekistonda endi dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. Sun'iy intellekt va algoritmlar yaratishni rag'batlantirish bilan birga, ularning huquqiy asoslarini ishlab chiqish zarurati bor. 2020 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi tasdiqlandi, unda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va kadrlar tayyorlash masalalari ham belgilangan. Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 2023 yilda sun'iy intellektning huquqiy maqomi bo'yicha muhokamalar o'tkazilib, Akmal Saidov sun'iy intellekt sohasi uchun maxsus qonunlar zarurligini ta'kidladi [9]. Bu boradagi qonunchilik tashabbuslari algoritmlar

ishlashining shaffofligi, fuqarolar huquqlarining himoyasi va sun'iy intellekt mas'uliyatini belgilashga qaratiladi. Platformalar va algoritmlar boshqaruvidagi raqamli dunyoda huquqiy tartibot o'ta dolzarb masalaga aylangan. Jamiyat shunday muhitga intilmoqdaki, unda texnologik qudrat demokratik nazorat ostida bo'lib, foydalanuvchilarning huquq va erkinliklari kafolatlanadi. Bu intilish yirik korporativ manfaatlar va jamoat manfaatlari o'rtasida muvozanat topishni taqozo etadi.

Shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi va raqamli erkinlik – raqamli davrning eng nozik va bahsli jihatlaridan. Internetda milliardlab foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari to'planmoqda: ijtimoiy tarmoqlardagi profillar, qidiruv tarixlari, geolokatsiya ma'lumotlari va hokazo. Bu ma'lumotlar bir tomondan xizmatlar sifatini oshirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, foydalanuvchilarning shaxsiy hayotiga tajovuz xavfini tug'diradi. Shu sabab, demokratik jamiyatlarda axborot maxfiyligi huquqi (privacy right) yangi sharoitda qayta talqin qilinmoqda.

Shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi masalasi shu qadar muhimki, hatto siyosiy tuzumlar barqarorligiga ta'sir qilishi mumkin. Maxfiylik buzilganda nafaqat alohida shaxslar, balki jamiyatning o'zi zarar ko'radi – chunki fuqarolarda o'zini senzura qilish, erkin fikr bildirishdan tiyilish holatlari vujudga keladi. Shu bois Yevropa Ittifoqi 2018 yilda dunyodagi eng qat'iy ma'lumotlarni himoya qilish tizimlaridan birini – Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR)ni joriy qildi. Unda har bir fuqaroning “unut bo'lish huquqi” (right to be forgotten), o'ziga oid ma'lumotlarni ko'rish va o'chirtirish huquqi, shuningdek, ma'lumotlar qayta ishlanishi ustidan nazorat qilish imkoniyatlari belgilandi. Bu reglament butun dunyoda korxonalarni foydalanuvchi ma'lumotlariga ehtiyotkor munosabatda bo'lishga majbur qildi.

O'zbekiston ham bu jarayonlardan chetda emas, xususan, 2019 yilda “Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Unda subyektning rozilgisiz shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, ularni uchinchi shaxslarga berish qat'iy man etildi. 2021 yilda mazkur qonunga qo'shimcha qilib, ma'lumotlarni mahalliy serverlarda saqlash talabi kiritildi – bu qoidaga bo'ysunmagan kompaniyalarga nisbatan yuqorida aytib o'tilganidek, mamlakatda xizmat ko'rsatishni cheklash choralari ko'rildi. Shuningdek, 2018 yil 22 oktabrda qabul qilingan “Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida”gi Qonun ham ahamiyatli hujjat bo'lib, internetdagi zo'ravonlik, pornografiya kabi materiallardan yosh avlodni asrash choralari belgilab berdi. Bu huquqiy normalar raqamli zamonda axloqiy va psixologik himoyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Raqamli erkinlik masalasiga kelsak, u ikki qirrali. Bir tomondan, Internet demokratiyani rivojlantirish, so'z erkinligini ta'minlash uchun beqiyos minbar yaratdi.

Yakun qilib aytganda, raqamli dunyo – bu ulkan imkoniyatlar va bir vaqtning o‘zida jiddiy xavf-xatarlar maydoni. Insoniyatning raqamli taraqqiyoti shiddat bilan davom etar ekan, huquqiy tafakkur ham unga mos ravishda yangilanib borishi muqarrar. Raqamli dunyoda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati tamoyillarini qaror toptirish, insonning raqamli makondagi sha’ni, qadri-qimmatini va erkinliklarini asrash – XXI asr huquqshunosligining bosh vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. The Fourth Revolution: How the infosphere is reshaping human reality. — Oxford, New York : Oxford University Press, 2014-09-01.
2. Castells, M. Informationalism, networks, and the network society: a theoretical blueprint / M. Castells // The network society: a cross-cultural perspective / edited by M. Castells. – Cheltenham; Northampton, MA Elgar, cop. 2004. – c. 3-49.
3. Castells, M. Informationalism, networks, and the network society: a theoretical blueprint / M. Castells // The network society: a cross-cultural perspective / edited by M. Castells. – Cheltenham; Northampton, MA Elgar, cop. 2004. – c. 3-49.
4. <https://constitution.uz/uz/clause/index> - Ўзбекистон Республикаси Конституцияси
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-y., 1-son, 2-modda; 2015-y., 52-son, 645-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)
6. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.04.2022-y., 03/22/764/0313-son
7. Evgeny Morozov Quotes. (n.d.). BrainyQuote.com. Retrieved September 21, 2025, from BrainyQuote.com Web site: https://www.brainyquote.com/quotes/evgeny_morozov_554934
8. <https://pd.gov.uz/spoiler/?type=spoiler>- Shaxsga doir ma’lumotlar subyektlari huquqlarini buzuvchilar reyestri
9. <https://parliament.gov.uz/uz/news/suniy-intellekt-va-huquq> - Сунъий интеллект ва ҳуқуқ.